XALQ DEPUTATLARI SHOFIRKON TUMANI KENGASHI
QARORI

Shofirkon tumani, Mustaqillik ko‘chasi, 4-uy. Tel: (365) 502-20-04

2022 - yil 3 - avgust VI-59-134-2-41-K/22 Shofirkon tuman hokimligi

O'zbekiston Respublikasining “Geografik obyektlarning nomlari to'g'risida”gi Qonuniga asosan tumandagi ziyoratgohni nomlash to'g'risida

Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to'g'risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o'tkazish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi Kadastr agentligi Ekspert komissiyasining 2022-yil 15-fevraldagi 01-14-167-sonli yig'ilish bayoni va xulosasini ko'rib chiqib va “Geografik obyektlarning nomlari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga asoslanib, “Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 6- va 24-moddalariga muvofiq Xalq deputatlari Shofirkon tumani Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to'g'risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o'tkazish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi Kadastr agentligi Ekspert komissiyasining 2022-yil 15-fevraldagi 01-14-167-sonli tumandagi ziyoratgohni nomlash to'g'risidagi xulosasi ma'qullansin.

2. Tuman hokimligi obodonlashtirish boshqarmasi (H.Yakubov), tuman statistika bo'limi (B.Azimov), Kadastrlar palatasi Shofirkon tumani filiali (R.G'afurov)larga tegishli davlat ro'yxatidan o'tkazish idoralari bilan birgalikda mazkur qarordan kelib chiqib hisobotlarga belgilangan tartibda o'zgartirishlar kiritish topshirilsin.

3. Mazkur qaror “Shofirkon ovozi” tuman gazetasida rasmiy e’lon qilinsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

4. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi (A.Elmurodov) zimmasiga yuklatilsin.

tuman Kengashi raisi **J.F.Sharopov**

Xalq deputatlari Shofirkon tuman
Kengashining
2022 yil 3 avgustdagi
VI-59-134-2-41-K/22-son qaroriga
1-ilova

Shofirkon tumanidagi ziyoratgohni nomlash

RO'YXATI

T/r	Geografik obyektning turi	Joylashgan manzili	Geografik obyektning nomi
1.	**Ziyoratgoh**	X.Orif mahallasi	Xo'ja Orif Mohitobon Ar-Revgariy